O'ZBEK TILI MULOQOTIDA PRAGMATIC BAHONING O'RNI

Azamat Mehmonaliyevich Toshpo'latov
Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). e.mail: azamatjonqdpi@gmail.com
Tel: +99893 981 01 82
https://doi.org/10.5281/zenodo.12604401

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili ta'limining bugungi kundagi dolzarb vazifasi – tilga oid nazariy bilimlarni amaliy qo'llash malakasini shakllantirish borasida fikr yuritilgan. Bu borada jahon va o'zbek tilshunosligi namoyandalarining e'tiborga molik qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, ona tili ta'limi, pragmatika, muloqot malakasi, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассмотрена актуальная задача сегоднешного преподавания родного языка – формирование компетентности при использовании теоретических знаний по языку в практике. Анализированы значительные концепции видных представителей узбекского и мирового языкознания и философии.

Ключевые слова: родной язык, преподавание родного языка, прагматика, компетентность общения, социально-экономическая продуктивность

Annotation: in the article the following things are discussed, such as, the actual task of education of the mother language at present time — forming skill of practical using of the theoretical knowledge concerning the language.

Key words: mother language, the education of mother language, pragmatics, communication skill, social-economic fruitfulness

Ona tili ta'limi mazmuniga qo'yiladigan talablarni o'zgartirish zaruriyati o'tgan asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida yuzaga kelgan yirik ijtimoiy o'zgarishlar davriga kelib pishib yetildi. O'zbek xalqi tarixida butunlay yangi bosqichni boshlab bergan Mustaqillik g'oyasining ilk amaliy ko'rinishlaridan biri o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bo'lganligi bejiz emas, albatta.

Ona tili indvidning shaxs bo'lib shakllanishidagi eng yetakchi omillardan ekanligini barcha mutafakkirlar ta'kidlab kelganlar. Tildan foydalanish imkoniyati faqat insonga berilgan ne'matdir. Undan foydalana bilish insonni boshqa mavjudotlardan farqlovchi eng asosiy xususiyatdir (*Insonni so'z ayladi judo hayvondin*. A.Navoiy). Tilning barcha uchun ochiqligi (foydalanish imkoniyati barcha uchun tengligi) aslo undan foydalanishda ham barcha tengligini bildirmaydi. Ona tilidan foydalanishdagi bu o'ziga xoslik ham

mutafakkirlar diqqatini tortib kelgan. Tilda barcha ma'lumotlar shakllantiriladi va saqlanadi (bu jihat esa asrlar mobaynida til va tafakkur munosabatiga doir falsafiy mubohasalar uchun asos berib keladi). Nasroniy dinining muqaddas kitobida "Avvalda so'z bo'lgan edi" deb yozilgan bo'lsa, yozma turkiy adabiyotning ilk namoyandasi Yusuf Xos Xojib shunday deydi:

Yashil ko'kdan indi bu bo'z yerga so'z,
So'z bilan insonda yorug' bo'ldi ko'z. [1, 14]

So'zning ilohiyligi borasidagi diniy qarashlar so'z mazmunining ko'p qirraliligi, imkoniyatlarining kengligi va tavsiflash mushkulligi borasidagi dunyoviy qarashlar bilan mutanosibdir. Ona tili shunday ajoyib xususiyatga egaki, undan barcha til tashuvchilari foydalana oladi, biroq eng yetuk tilshunoslar ham uni bekamu ko'st tavsiflab bera olmaydi.

Ta'lim mazmuniga ilk qarashlar shakllantirilayotgan davrlardanoq ona tili ta'limiga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'limda xususiyliklargagina asoslanish yaxshi natija bermasligi aniq. Gegelь bu xil ta'lim bolani hamma narsaga pisandsizlik bilan qarashga o'rgatadi.[2, 93] deb ta'kidlaydi. SHuning uchun ta'limni bola ongi qabul qilishi mumkin bo'lgan mavhumotlarga asoslash to'g'ri bo'ladi. Bola ongiga eng yaqin mavhumot, albatta, tildir. "Til uni bilish bola ruhini xususiyliklar va yakkaliklardan umumiylikka tomon, ongga tomon ko'tarib boradigan o'sha havo yangliq hissiy-nohissiy hilqatdir"[2, 93] Ona tilini insoniyat tarixining o'ziga xos fenomeni sifatida tavsif etish til falsafasining yangi gumbolьdchilik yo'nalishining o'zagidir. Nemis tilshunos faylasufi Vaysgerber ikki jahon urushi oralig'ida aynan ona tili fenomenining lisoniy va falsafiy tadqiqotlar uchun asosiy tadqiq predmeti bo'lib qolishi sabablari borasida fikr yuritar ekan, aynan til xalq yaratuvchi kuch(narodosozidayushaya sila – volksbildende Kraft)dir degan xulosaga keladi. [3, 105]

Millatning asosiy tasniflovchi belgisi ona tilisi ekanligi shak-shubhasiz. Xususan, o'zbek xalqi misolida ko'rsak. O'zbeklar turlicha antropologik belgilarga ega. Bosh chanog'ining tuzilishi, gavda o'lchamlari va qurilishi, soch hamda ko'z rangiga ko'ra turli-tuman millat vakillarini uchratishimiz mumkin. Ammo o'zbeklarning barchasi o'zbek tilida gapiradi. Sochi malla va ko'zi ko'k bo'la turib o'zbek tilini asosiy muloqot tili deb bilsa, o'zbek tilida fikrlasa, u ana shu millatning vakili deb sanalishga, qora soch, qora ko'z, biroq o'zbek tilida fikr yurita olmaydigan insondan ko'ra ko'proq haqlidir. Ona tili inson ongida olamning lisoniy manzarasi yaratilishi uchun material bo'ladi. Ushbu manzara qaysi tilda yaratilganligi mentalital xususiyatlar shakllanishiga qat'iy ta'sir ko'rsatadi. "Til xususiyliklari kundalik nutq faoliyatida doim bizga kerakli

hamroh. Ular ortida turgan umumiylikni tekshirish, topish uchun bizga na maxsus qurol, asbob-uskuna, na alohida sharoit zarur. SHu bilan birga biz qo'lga kiritgan natijalar qurilishi olam qurilishi, inson hayoti asosini tashkil etuvchi boshqa umumiyliklar tahlilida qo'l kelaveradi. CHunki dunyo o'xshash tarxlar, umumiy tektologik qonuniyatlar asosiga qurilgan:

Sonie'kim chekti chun sun'i qalam,
Ofarinish tarxini qildi raqam" [4, 3-4]

Ya'ni til nafaqat o'zi haqida, balki olam haqida ma'lumotlarni o'zida saqlab turadi. Til qurilishi millat uchun uning atrofidagi olam haqidagi tasavvur bilan mos tushadi. Turli morfologik tipdagi tillarning mavjud bo'lishi, muayyan kategoriyalarning ayrim tillarda mavjud bo'lishi, boshqalarida esa uchramasligi kabilar ana shu dunyoqarash bilan chambarchas bog'liq. Masalan, nega ruslar nafaqat jonli, balki jonsiz predmetlarni ham jins (rod) tushunchasi bilan tavsiflaydilar? Nega o'zbeklar zamon, mayl, shaxs-son tushunchalarini bir-biriga bog'laydilar? Nega inglizlar egasiz gap qura olmaydilar? Yoki turli millat vakillari bir xil narsaga turlicha baho berishining sababi nima? Masalan, *terak* daraxti nega ruslar uchun *kelishganlik*, o'zbeklar uchun *beso'naqaylik* belgisi? Bularning barchasi inson o'z ongida til yordamida yaratib olgan dunyoning kichik voqelanishlaridir. Bizningcha, bugungi ona tili ta'limi ana shu voqelanishlarni izchil o'rgatish va amalda qo'llash imkonini berishga yo'naltirilishi lozim. Alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ona tilini his qilish va undan amaliy foydalanish ko'nikmasi bolada tug'ma bo'ladi: bu tug'ma xususiyat uning maishiy va ijtimoiy qurshovi tomonidan shakllantirib boriladi. Bola maktabga bu boradagi o'ziga xos tajriba bilan keladi. Biroq aynan maktab unda bu ibtidoiy tajribani sayqallashi, tizimga solishi va voqelantirish imkoniyatlarini kengaytirib jamiyat talablariga moslashtirishi lozim.

Mustaqillikdan so'ng ona tili ta'limi mazmuni va sifatini yaxshilash borasida bir qator ishlar amalga oshirildi: darsliklar tubdan yangilandi, ona tili ta'limi davlat ahamiyatiga molik hodisa sifatida ko'rila boshlandi, ta'limga berilayotgan alohida e'tibor tufayli ona tili ta'limi ham yangi bosqichga ko'tarildi. SHu bilan birga o'tgan davr ona tili ta'limi oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Ushbu davrda o'zbek tilshunosligi katta nazariy yutuqlarga erishdi. Bu nazariy bilimlar ijtimoiy-iqtisodiy naf keltiruvchi tatbiqiy yo'nalishlar material bo'la oladi. Tilshunoslikni aynan ijtimoiy-iqtisodiy naf keltiruvchi fan sifatida shakllantirish uchun barcha sharoitlar yetildi. Tatbiqiy yo'nalishlar bo'yicha jahonda to'plangan katta tajribani o'zbek tili materiallari asosida qayta ishlash zamon talabidir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahonda barq urib rivojlanayotgan pragmatik tilshunoslik keyingi 10-20 yilda o‘zbek tilshunosligida ham muayyan tadqiqotlarda aks eta boshladi. Ona tili ta’limi mazmunida ushbu nazariy natijalardan foydalanish yosh avlodni komil shaxs bo‘lib ulg‘ayishida muhim omillardan biri bo‘lardi. “Insonning ob’ektiv olamdagi barcha ijtimoiy xatti-harakatlari uning nutqiy faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham inson nutqini o‘rganish uning ma’naviy olami bilan tanishish imkoniyatini beradi. Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog‘idir. U insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta’siri bilan aloqador masalalarni o‘rganadi”.[5, 8] Demak, ona tili ta’limida aynan pragmatik bilimlarga asoslanish o‘quvchi nutqiy faoliyatini ijtimoiy korrektsiya qiladi, sayqallaydi.

O‘zbek tilining sintetik tabiati uning pragmatik tavsifida ham aynan morfologik shakllar yetakchiligini shartlashi shubhasiz: “...lug‘aviy mohiyatlarni oydinlashtirish va voqelantirish jarayonida sathlararo hamkorlik o‘ta zich holatda bo‘lib, leksika va morfologiya hamkorligi leksika va sintaksis hamkorligiga nisbatan ustunroqdir”. [6, 24] Turkiy tillarda morfologik kategoriyalar yuqori darajada shakllangan yopiq tizimlar bo‘lgani holda o‘z atrofida lug‘aviy va sintaktik vositalarni jamlashi turkologlar diqqatini doim tortib kelgan.[7, 7-8] Til birliklari o‘z mohiyatiga immanent ega bo‘lsa-da, faqat nutqda uni namoyon qila oladi. Turkiy tillarda, jumladan o‘zbek tilida ham, lug‘aviy birliklarni nutqqa olib kiruvchi va ularni sintaktik tizmalarga jamlovchi vositalar asosan morfologik tabiatga ega. Pragmatika nutqiy voqelanishlarni tadqiq qiluvchi yo‘nalish [8, 389] sifatida o‘zbek tili tavsifida morfologik vositalarni asosiy tadqiq predmeti sifatida ko‘rishi lozim, bizningcha.

Tahlilga qiyin beriluvchi, biroq nutqda faol qo‘llaniluvchi morfologik birliklarning ayrim qo‘llanilishlariga e’tibor qaratsak:

Do‘konchiga berilgan savol:

- *Non bormi?*

Do‘konchi javobining variantlari:

- *Yo‘q.*
- *Yo‘q edi.*
- *Yo‘q edi-ya.*
- *Yo‘q -da.*

Bu berilishi mumkin bo‘lgan javoblarning to‘liq tizimi emas, albatta. So‘ralgan mahsulotning yo‘qligi bu javoblarning mazmunini tashkil etadi. Qo‘llanilgan

yordamchi fe'l va yuklamalar ularga muayyan pragmatik tus beradi. Birinchi jumla(*yo'q*)ning o'zi savolga to'liq javob yetkazadi. Keyingi xil jumlalarning qurilishi aynan mazmunga emas, uning pragmatik tusiga e'tiborni kuchaytiradi.

Pragmatiklar "Yo'q" so'ziga "suhbatdosh yuziga tortilgan tarsaki" deb baho berganlar. Ana shu tarsakini yumshatish vazifasi ikkinchi jumla(*yo'q edi*)dagi *edi* to'liqsiz fe'liga yuklatilgan. *Edi* ning ushbu xususiyatini tahlilga tortish pragmatik morfologiyaning vazifasidir.

Keyingi jumla(*yo'q edi-ya*)dagi *-ya* yuklamasi edi bilan yuzaga kelgan yumshoqlik ottenkasiga mulozamat tusini ham qo'shadi va quyidagicha bir nechta jumlaning o'rnini bosadi: *Afsus, yo'q. Qaniydi bo'lsa. Ovora bo'ldingiz.*

Oxirgi jumla(*yo'q-da*) esa so'zlovchining biroz zardasini ifodalab, *yo'q* ning o'zida ifodalanmaydigan emotsional tus bilan boyigan.

Aytilganlar pragmatik baho bo'lgani uchun nutq momenti, sharoiti va qatnashchilari bilan bog'liq ravishda yana yangi qirralar kasb etishi mumkin. Aynan shu jihat ularni tahlilga tortishni qiyinlashtiradi. Biroq zamon ona tili ta'limi oldiga qo'yayotgan talablar o'quvchida bu xil holatlarni tahlil etgan holda ishlata bilish malakasini shakllantirishni dolzarb vazifa qilib qo'yadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Yulduzcha.1990.
2. Гегель. Философия духа // Гегель. Сочинения. т. III. -М., 1956.
3. Радченко О.Я. Язык как миросозидание. – Москва: URSS, 2006.
4. SHahobiddinova SH.H. O'zbek tili morfologiyasi. – Andijon, 2012.
5. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. –T.: Akademnashr. 2013.
6. Mengliev B.R. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar. Filol.fanl.dokt.... diss. avtoref. – Toshkent, 2002.
7. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI - XII вв. - Т.: Фан, 1989.
8. Лингвистический энциклопедический словарь - М.: Сов. энц-я, 1990.